

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI IQTISODIYOTINING SIYOSIY TAXLILI.

**Shimoliy G'arbiy Harbiy Okrug
Serjantlar tayyorlash maktabi mayor
Sh.Xushvaqtov**

Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, xarbiy, transportga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. Shuni nazarda to'tadigan bo'lsak, butun mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlash xamda mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul tamoyildir. Mintaqada jug'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni xal etish imkoni tug'iladi. Bu esa, uz navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini xal qilishga qo'shilgan salmoqli xissa bo'ladi. O'zbekistan erkin rivojlanayotgan dastlabki yillarda o'ttirilgan tajriba xam ayni shundan dalolat bermokda. Bu tajriba qo'lga kiritilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik ulkan yutuq ekanligiga va bu ulug' ne'matning ahamiyati cheksizligiga yaqqol ishontirmoqda. Uz erkimizni qanday tasarruf etish uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi xavf-xatarlardan saqlash xar birimizga bog'liqdir.

Iqtisodiyotni shakllantirishda davlat katta rol o'ynadi. Davlat tovar va xizmatlar olib chiqishni rag'batlantirib, xorijiy firmalar bidan kooperatsiyalarga, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga yordamlashib o'ziga eksportga yunaltirilgan ishlab chiqarishlarni rag'batlantirish funksiyasini oldi. Chet eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axborot oqib kelishini engillashtirgan mustaxkam xuquqiy asos yaratildi.

Mamlakatlarning ochiqroq iqtisodiyotga o'tishlari transmilliy korporatsiyalar faoliyati bilan tezlashdi. Yangi bozorlarni uzlashtirishga intilib, turli mamlakatlarda ko'plab filiallar, tashqil etib, va xalqaro iqtisodiy ayirboshlashni banalmilallashtirdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida transport, axborot-aloqa vositalarining sezilarli rivojlanishi xam milliy iqtisodiyotlar ochiqligi rivojlanishida, axoli xarakatchanligini oshishida katta rag'batlantiruvchi rol uynadi.

Asta-sekin, uzoq vaqt mobaynida davlatlarning bir-biridan ajratib turgan savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy to'siqlar olib tashlandi. Xalqaro ayirboshlashning erkinlashtirilishi milliy xo'jaliklarning tashqi sharoit va ta'sirlarga moslashishini engillashtirdi, ularning xalqaro mexnat taqsimotiga yanada faol kushilishiga imkon yaratdi.

60-yillardan boshlab ochiqlik jarayonlari qator rivojlanayotgan mamlakatlarga tarqala boshladi. 80-yillar boshidan Xitoy xam ochiqlik siyosatiga tarafdorligini e'lon qildi. "Ochiqlik termini" dunyoning ko'plab mamlakatlari lug'atiga kirdi. Masalan: arabcha-"infitax", xitoycha-"kayfan".

Shunday qilib "ochiq iqtisodiyot" tushunchasiga nimalar kiradi?

“Erkin savdo” va “ochiq iqtisodiyot” tushunchalarini farqlash lozim. “Erkin savdo” xaqidagi tezis A.Smit siyosiy iqtisodiyotidan boshlanadi va zamonaviy amerika iqtisodchilarining kashfiyoti emas. “Ochiq iqtisodiyot” tushunchasi ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valyutalarning o‘zaro almashuvining erkin xarakatini o‘z ichiga olgan tovarlar savdosi sifatida “erkin savdo” tezisidan kengroq tushunchadir.

Hozirgi davrning qarama-qarshiliklariga qaramay, uning asosiy tomoni ko‘prok raqiblik emas, balki xamkorlik va o‘zaro kelishuv tendensiyasi bo‘lmoqda. Turli davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasining yaqinlashuvi ruy bermoqda.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mohiyati, ma’nosini kursatuvchi asosiy kursatkichlardan biri xalqaro mexnat taqsimotidir.

Xalqaro mexnat taqsimotida ishtirok etish davlatlarga kushimcha iqtisodiy samara berib, uz extiyojlarini eng kam xarajatlar bilan tulikrok kondirish imkonini beradi.

Mexnat taqsimoti nima? Mexnat taqsimoti - bu tarixan belgilangan ijtimoiy mexnat tizimidir. U jamiyat rivojlanishi jarayonida faoliyatning sifat jixatdan differensiatsiyasi natijasida kelib chiqadi.

Mexnat taqsimoti turli shakllarda bo‘ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kursida xalqaro mexnat taqsimoti urganiladi.

Xalqaro mexnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayoni mexnat faoliyati turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvi, o‘zaro xamkorligida namoyon bo‘ladi. Mexnat taqsimoti fakat ajratish jarayoni sifatida emas, balki, ayniqsa jaxon miqyosida mexnatni birlashtirish yo‘li sifatida chiqadi.

Xalqaro mexnat taqsimoti davlatlar o‘rtasida mexnatning ijtimoiy-xududiy taqsimotining darajasi xisoblanadi. U aloxida davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Sanoati rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishi ko‘p xolatda tashqi iste’molchilarga, ichki talab importga yunalgan bo‘ladi deb taxmin kilinmokda. Rivojlanayotgan davlatlarda ichki bozorning nisbatan tez, lekin ekstensiv kengayishi taxmin kilinyapti.

Sunggi o‘n yilliklarda jaxonda misli kurilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ruy berdi. Ular xalqaro mexnat taqsimotiga sezilarli ta’sir kursatdi.

Xalqaro savdo

Xalqaro savdo xududiy-tovar tizimi dinamikasi va uzgarishlarning xususiyatlari.

Xalqaro savdodagi sodir bulyotgan jarayonlarni taxlil kilar ekanmiz erkinlashtirish uning eng asosiy yunalishi ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Boj to‘lovlarida sezilarli kamaytirishlar yuz berdi, ko‘pgina cheklashlar, kvotalar va boshqa to‘siqlar yo‘q qilindi. Biroq bir qator muammolar mavjud. Ularning eng asosiysi - proteksionistik xarakatlarning ko‘p narsalarda bir-biriga zid bo‘lgan iqtisodiy guruxlar, mamlakatlarning savdo-iqtisodiy bloklari mikiyosida rivoj topishi.

Savdo-iqtisodiy bloklarning a'zo mamlakatlari dunyo bozoridagi zamonaviy sharoitning kiyinligi va muammolarini tushungan xolda bu muammo va kiyinchiliklarni ijobiy xal qilish yo'llarini axtarmoqdalar.

Umum jaxon savdo tashqiloti(VTO)ning bosh direktori R.Rudjero VTO ning a'zo mamlakatlarini ko'p tomonlama savdo tizimining tarakkiyotida xamkorlik qilishga chakirdi. Bu uning fikricha xududiy tizimlarni yaratish bir xil axamiyatga ega. Taxminlarga kura global erkin savdo zonasini yaratishga 2020 yilda erishiladi.

Osiyo regionidagi mamlakatlarning 30 yil oraligidagi iqtisodiy rivojlanish sur'ati xisoblab kurilganda (1960-1990) uning mikdori yiliga 5%ni tashqil etgan, usha paytda bu kursatkich Evropa mamlakatlarida 2%ga teng bo'lgan. Bu paytda, Tayvanda o'sish sur'ati juda yuqori bo'lgan. SHuningdek, 90 yillarda J.Koreya 8%, Singapur 8%, Malayziya 9% yillik o'sish sur'atiga ega bo'lgan.

“Yangi industrial mamlakatlar” iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi ular axolisining yashash sharoitlari yaxshilab borayotganligi bilan uygunlashib ketadi. Shuningdek, 60 yillarning o'rtalaridan 90 yillarning boshlariga kadar utgan davr ichida axoli jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad bu mamlakatlarda 4 marotaba usdi. Xalqaro eksportlarning prognoz qilishicha, 2010 yilga borib sharqiy Osiyo Garbiy Evropani yalpi milliy maxsulotning xajmi buyicha quvib o'tadi, 2020 yilga borganda esa SHimoliy Amerikani quvib o'tadi.

Singapur xaqida shuni aloxida ta'kidlab o'tish joizki, u 1995 yil Janubiy sharqiy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib “industrial rivojlangan mamlakat” statusini qo'lga kiritdi. Bunday unvon unga iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashqiloti (IXRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Barqaror iqtisodiy o'sishning 3 yilligi davomida Sigapurga nisbatan past rivojlangan 10 mamlakat doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy davlatlari qatoridan joy oldi. (axoli jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy maxsulot xisobiga). Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoati yiliga o'rtacha 8,4% tezlik oborotiga ega bo'ldi, mamlakatdagi axolining xam biri esa o'z yashash darajasini o'rtacha etti marotaba orttirdi. Singapurdagi xar bir axolining o'rtacha statistik daromadi 1995 yilda 22,3 dollarni tashqil etdi.

Jaxon tajribasi guvoxlik bermoqdaki, xalqaro iqtisodiy xamkorlikka aktiv kirishayotganda, u yoki bu mamlakatlar asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish xamda tashqi savdoning o'sishiga zaruriy bo'lib xisoblanadigan sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlar uz iqtisodiyotlari doirasida texnologik xalqlarning barcha bug'inlaridan foydalangan xolda tarkibiy kayta qurishlarga –xom ashyolardan esa texnologik sig'imi yuqori bo'lgan tayyor maxsulotlarga o'ta boshlaydi. Tarmoqlarni rivojlantirish va kayta ta'mirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish, xalqaro mexnat taqsimoti ko'lamida ancha istiqbolli va “foydali” usul bo'lib xisoblanadi.

Sharqiy Osiyodagi, shuningdek janubiy Sharqiy Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarda (Tayvanda, 50 –yillarda J.Koreyada; 60 yillarda –Malayziyada; 60 yillar 70 yillarning boshlarida –Tailandda; 50 yillarning boshlari 60 yillarning oxirida Filippinda;) import o'rnini egallash siyosati ustuvor yunalishga ega bo'ldi. Gonkong va ma'lum darajada Singapur, uzlarining tarixiy shart –sharoitlari,

jugʻrofiy joylashuvi va ichki talabning seklanganligi taʼsirida ishlab chiqarishni koʻprok eksportga qaratdilar. Maxalliy ishlab chiqarishni ragʻbatlantiruvchi chora – tadibrlar, kayta ishlash sanoatidagi foyda meʼyorini oshirishga olib kelishi, isteʼmol maxsulotlar, sungra esa oraliq talabga ega tovarlar va uzoq muddatli foydalanishga muljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta –sekinlik bilan import oʻrnini egallashga olib kelishi kerak.

Janubiy Koreya shu yillarning uzida jaxon bozoriga xuddi shu maxsulotlarning mos ravishda 2,9; 3,4; 9,6; 9,3; 11,1 va 9,6% ini etkazib berdi. Bundan tashqari, uning jaxon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1% ga toʻgʻri keldi.

Osiyo “Yangi industrial davlatlari” sanoat eksportining yuqori dinamikasini taʼkidlagan xolda, aytish kerakki, anʼanaviy tovarlar eksporti tashqi savdo oborotida avvalgidek muxim, ayrim tovarlar buyicha esa xal qiluvchi oʻrinni egallardi. Masalan, xom ashyo va oziq-ovkatning Janubii Koreya va Tayvan eksportidan ulushi mos ravishda 7,1 va 7% ga teng edi. 1990-91 yillarda eksportda qiymati boʻyicha ikkinchi oʻrinni Janubiy Koreyada poyafzal, Tayvanda esa uyinchoqlar va sport tovarlari egallardi.

Janubii Koreya eksportida turtinchi oʻrinda xamon sintetikadan tayyorlangan tekstil tovarlari, Tayvannikida ettinchi oʻrinda poyafzal turadi.

Osiyo “Yangi industrial davlatlari” eksporti ayniksa mashina va uskunalar eksporti fondida Xindiston va Lotin Amerikasi YAID(yangi industrial davlat) ning kuchsizlanishi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasi YAID tovar eksportinig rivojlangan davlatlar umumiy eksportidagi ulushi 1992 yilda 1980 yilga nisbatan unchalik kamaymagan (-0,5%) bulsada, mashina va uskunalar ulushi kariyb 1,8 barobar kamaydi. Aynan shu mashintexnik maxsulotlar eksporti rivojlangan davlatlarning xalqaro mexnat taqsimotidagi xolatlari yaxshilanishining eng muxim omilidir.

Osiyo “Yangi industrial davlatlari”ning faol tashqi savdo siyosati 90-yillar boshida AQSHning Osiyo-Tinch okeani regionini davlatlari bilan yillik oʻzaro savdosi xajmi (128,4 mlrd. doll.) birinchi marta Garbiy Evropa bilan savdo oboroti (117,1 mlrd. doll.) yuqori boʻldi. Bunda Osiyo Yangi industrial davlatlari (Yaponiyani kushib xisoblaganda) AQSH bozorida avtomobillar va elektrontexnikaning 30% ini, tekstil va tikuvchilik maxsulotlarining 50% ini egallaydi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida eng yirik chet el kapitali importyori boʻlgan “Yangi industrial davlatlar” 80-yillar oxiridan chiqishning geografiyasi ancha keng. Bu avvalo, ilgor sanoati rivojlangan davlatlar, Osiyo-Tinch okeani regionidagi rivojlanayotgan davlatlar, kapitalning yangi bozorlaridir.

XXI asrda bu davlatlar jaxon iqtisodiy xukmronligida yuqoriroq, oʻrin egallaydilar va yangi muxim natijalarni namoyish qiladilar. Jaxon banki prognozlariga qaraganda, yaqin 10 yil mobaynida oʻsishning oʻrtacha surʼatlari Janubiy Osiyoda - 5,49%, Sharqay Osiyoda - 7,7% ni tashqil qiladi. Sharqiy Osiyoda kishi boshiga toʻgʻri keladigan daromadning oʻsishi 1996-2004 yillarda yiliga 6,6% ga teng boʻlishi kutilmokda. Oʻrta xisobda erda yashaydigan xar bir kishiga toʻgʻri keladigan daromad yiliga 1,9% ga usadi.

Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari

XX asr o'rtalarida xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va valyuta munosabatlari rivojlanishi yangi kuchlanish oldi. Ochiq iqtisodiyot kurishning umumiy tendensiyasi savdo ayirboshlashuvining tezlashishiga, xalqaro moliyalashtirishning rivojlanishiga, yangi valyuta bozorlarini xosil bo'lishiga, turli mamlakatlar orasida valyuta-moliya munosabatlarining kengayishiga imkon beradi.

Valyuta munosabatlari pulning jaxon puli funksiyasi bilan bog'liq, bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiladi. Pul jaxon puli sifatida tashqi savdo va xizmatlar, kapital migratsiyasi, foydaning nivestitsiyalari kuchayishi, zayom va subsidiyalar berish, ilmiy-texnik almashuv, turizm, davlat va xususiy pul kuchirishlariga xizmat qiladi.

Valyuta munosabatlari milliy va xalqaro darajalarda amalga oshiriladi. Milliy darajada ular Milliy valyuta tizimlari (MVT) soxasini qamrab oladi. Milliy valyuta tizimi bu valyuta qonunchiligi bilan belgilanadigan davlat valyuta munosabatlarini tashqil qilishning shaklidir. MVTning o'ziga xos tomoni u yoki bu davlat iqtisodiyotining, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish darajasi va o'ziga xosligi bilan aniqlanadi.

Milliy valyuta tizimi quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- milliy valyuta birligi;
- rasmiy oltin va valyuta zaxiralarining tarkibi;
- milliy valyuta pariteti va valyuta kursi shakllanishining mexanizmi;
- valyuta qaytishi sharoitlari;
- valyuta cheklanishlarining mavjudligi yoki yo'qligi;
- davlatlarning tashqi iqtisodiy xisob-kitoblarini amalga oshirish tartibi va boshqalar.

Milliy valyuta tizimlarini bog'lovchi zveno bo'lib valyuta kursi va paritet xizmat kiladi. Valyuta kursi aloxida mamlakatlar valyutalari nisbati yoki ma'lum davlat valyutasining boshqa davlatlar valyutasida xisoblangan "narxi"ni namoyon qiladi.

Paritet - valyutalarning ulardagi oltinga mos keluvchi nisbatidir. Ammo valyuta kursi amalda xech qachon paritet bilan mos kelmaydi.

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) jaxon xo'jaligi doirasida valyuta munosabatlarini tashqil qilishning shakli xisoblanadi. U jaxon kapitalistik xo'jaligi evolyusiyasi natijasida paydo bo'ladi va xuquqiy jixatdan davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtirilgan.